



**E'tiborga muhtoj bolalar**

3-betda o'qing ↗



**Tadbirkorning soliq qarzdorligi bekor qilindi**

5-betda o'qing ↗

# INSON va qonun

2024-YIL  
2-APREL  
SESHANBA  
№ 13  
(1425)

[www.hudud24.uz](http://www.hudud24.uz)

[www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz)

[telegram.me/hudud24official/](https://telegram.me/hudud24official/)

[facebook.com/hudud24official/](https://facebook.com/hudud24official/)



## 2 JARAYON

**Fuqarolarning buzilgan huquq va manfaatlarini himoyalashda, aholiga namunali davlat xizmatlarini ko'rsatishda yangicha tartib va mezonlarning hayoga tatbiq etilayotgani yillar davomida yechimini kutib kelayotgan muammo-larga barham bermoqda. Birgina adliya tizimidagi o'zgarishlar tahlil qilinganda, sohaning davlat idoralari va xalq o'rtasidagi ishonchli ko'prik vazifasini bajarayotganini ko'rish mumkin.**

### Bir milliondan ortiq davlat xizmati ko'rsatildi



Xususan, Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi va uning quyi bo'g'lnlari tomonidan o'tgan 2023-yil davomida aholiga jami 1 million 57 ming 412 ta davlat xizmati ko'rsatilgan bo'lib, yil davomida 36 ming 991 ta tadbirkorlik subyektlari davlat ro'yxatidan va qayta ro'yxatdan o'tkazildi.

Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan yangi tashkil etilgan Ko'kdala tumanida aholining rasmiy hujjatlar bilan bog'liq muammolari mavjud edi. Tumanning "Qanonli", "Chorvador" va "Toshli" mahallalarida fuqarolarning nikoh, tug'ilganlik haqidagi guvohnomalarni rasmiylashtirish bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni hal etish maqsadida tashkil etilgan aksiya doirasida 1 ming 205 ta davlat xizmatlari ko'rsatilib, 110 ta tug'ilganlik haqidagi guvohnoma, 109 ta nikohni qayd etish guvohnomalari rasmiylashtirib berildi.

Vaqt va ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olishda joriy etilayotgan elektron xizmatlardan foydalanish uchun o'tkazilgan "Har bir uyga bepul huquqiy maslahat bilan" shiori ostidagi huquqiy aksiya doirasida fuqarolarga "my.gov.uz" tizimidan foydalanishni bepul o'rgatish maqsadida chekka hududlarda sayyor davlat xizmatlari ko'rsatildi. Ushbu tadbirdorda 97 ming 320 nafar fuqaro qamrab olinib, onlayn xizmatlarning afzalliklari tushuntirildi.

Shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ularga qulayliklar yaratish maqsadida faoliyat olib borayotgan Qarshi shahri va Shahrisabz tuman davlat xizmatlari markazidagi xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish bilan bog'liq harakatlar yana 10 ta tuman davlat xizmatlari markazlarida ham yo'lga qo'yildi.

Davlat xizmatlari markazlarida jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning alohida toifalarga ajratilganini sohadagi yana bir yangilik, deyish mumkin. Ya'ni, ushbu amaliyat natijasida fuqarolarning navbat kutish vaqtiga 2-3 hissaga kamayishiga erishildi.

Fuqarolar huquqlarining qonuniy himoyalashida ularning tegishli hujjatlarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, tug'ilishni qayd etish, tug'ilganlik haqidagi guvohnomani o'z vaqtida rasmiylashtirish keyingi jarayonlarda fuqaroning huquq va manfaatlarini ishonchli himoyalashga xizmat qiladi.

**Nilufar SATTOROVA,**  
Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi  
mas'ul xodimi



**Yaqinda Toshkent davlat yuridik universitetining bir guruhi olimlari AQShda safarda bo'lib, Kanzas universiteti faoliyati bilan yaqin-dan tanishishdi. Biz bu xususda ma'lumot olish uchun TDYU Ommaviy huquq fakulteti dekaniga, professor Shaxzod SAYDULLAYEV bilan suhbatlashdik.**

### Huquqiy ta'lif qiyosda bilinadi

**- Shaxzod Alixanovich, avvalo, Kanzas universiteti, uning huquq maktabi haqida ma'lumot bersangiz?**

– 1866-yilda asos solingen Kanzas universiteti davlat tadqiqot muassasasi hisoblanib, eng yuqori sifatli 400 dan ortiq akademik dasturlarni taklif etadi. Unda talabalar uchun barcha xizmatlar, kampusda uy-joylar va yarim kunlik ish bilan ta'minlanish imkoniyati mavjud. O'qish uchun to'lovlar va uy-joy xarajatlari nisbatan o'rtacha hisoblanadi. Universitetning bakalavriat, magistratura yoki professional darajasi butun dunyoda qadrlanadi.

O'quv jarayonlari reja-grafik va dars jadvali asosida, qolaversa, muammoli masalani o'rtaga tashlash, uning yechimiga qaratilgan muhokamalar shaklida olib boriladi. Kazus tizimi ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Talabalar kazus yuzasidan beriladigan savollarga shtat qonunchiligi bo'yicha javob beradi. Davomat masalasiga kelsak, talaba darsga majburlanmaydi. Baracha talabalar ixtiyoriy ravishda 100 foiz darsda qatnashadi. Darsda asosiy e'tibor mavzuning muammoli jihatlarini hal qilishga qaratiladi. Elektron doskalar, kompyuterdan foydalilaniladi, slaydlar qo'yib beriladi.

Bordi-yu, talaba bir marta dars qoldirsa, chora ko'rilmaydi. Lekin keyingi gal o'qituvchi tomonidan ogohlantiriladi. Uchinchi marta ham shu hol takrorlansa, talaba yakuniy nazoratga qo'yilmaydi. Shuningdek, qoldirilgan darslarni qayta o'zlashtirish ham pullik hisoblanadi. Bunda talaba bitta dars uchun 500 AQSh dollarri to'laydi. Yakuniy nazoratni qayta topshirish esa 2500 AQSh dollariga tushadi.

**- Kanzas huquq maktabining yutuq va kamchiliklari nimada?**

– Yutuqlaridan biri Kanzas huquq maktabi o'z yo'naliishi bo'yicha mamlakatda 14-o'rinda turadi. Bitiruvchilarining 90 foizi ishga joylashadi. Talabalar uchun bepul jamoat transportlari qatnovi yo'lga qo'yilgan.

U yerda talabalar soni 400 taga yaqinligi ham muayyan afzalliklar beradi. Maqsad – darslarni bir-biriga zinch bo'lmagan holda tashkil etish.

AQShda oliy ta'lif tizimi aynan bizniki kabi emas. Ya'ni, talaba muayyan ta'lif muassasasini

tugatib, bakalavr darajasini olgandan keyingina yurisprudensiya bo'yicha o'qishga qabul qilinishi mumkin. Talabalar klinik ta'lif klubi doirasida yuridik maslahatlar berishlari yoki sud ishlarida qatnashishlari mumkin.

AQShda talabalar har bir shtat qonunchilagini alohida o'rganadi. Chunki mamlakatning ba'zi shtatlarida, hattoki, ikki xil huquq tizimi qo'llanilish holatlari ham kuzatiladi. "Soliq huquqi" ham muhim fanlardan biri hisoblanadi. Sababi, ular "Hamma narsadan qochish mumkin, lekin soliglardan qochib bo'lmaydi" degan qoidaga amal qilishadi.

**- Bizning universitetimiz ham Kanzas universiteti kabi yuqori reytingga chiqishi uchun yana nimalar qilinishi kerak, deb o'ylaysiz?**

– Universitetimizning xalqaro reytingda "top"ga chiqish masalasida qator omillar bor: talabarning bilim darajasi, o'qituvchilarning xalqaro nashrlarda chiqqangan maqolalalari va bitiruvchilarning qanchalik darajada ish bilan ta'minlanayotgani hamda boshqalar.

Shuni ham ta'kidlash joizki, Toshkent davlat yuridik universiteti oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalardan biri – 2030-yilgacha xalqaro miqyosda tan olingan tashkilotlar reytingida eng yaxshi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kirishdir (Quacquarelli Symonds (KS) Worlds University Rankings, Times Higher education). O'tgan yili Toshkent davlat yuridik universiteti UI Green Metric World University Ranking reytingida (2023) dunyoning yetakchi universitetlari orasida 350-o'rinni egallab, TOP-500 talikka kirdi. Bu 2022-yil bilan taqqoslaganda 100 po'g'ona yuqoridir. Xalqaro universitetlarda yashil iqtisodiyot bilan bog'liq mavjud holat va siyosat bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijalarini taqdim etuvchi bu reytingda yuridik universitet mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari orasida eng yuqori natijalardan birini qayd etdi.

**- Kanzas huquq maktabini tugatgan yuristlar AQShda ko'zga ko'ringan davlat lavozimlari, huquq va boshqa sohalardagi xususiy kompaniyalar rahbarlari bo'lishganmi?**

– Albatta, yuqorida ta'kidlaganimizdek, talabarning 90 foizi ishga joylashtiriladi. Bitiruvchilar sudlarda, hukumat idoralarida, Senatlarda faoliyat yuritishadi. Nafaqat Kanzas shtatida, balki boshqa shtat va davlatlarda ham. Shuningdek Kanzas huquq maktabida yillar kesimida bitiruvchilar surati ilingan stendlar joylashtirilgan xonalar bor. Bitiruvchilar klubni ham tashkil etilgan. Universitetda uning tarixiga yuksak e'tibor qaratilar ekan.

**- Kanzas huquq maktabini va Toshkent davlat yuridik universiteti o'rtasida qanday istiqbolli loyihibar rejlashtirilgan?**

– Kelgusida Kanzas universiteti bilan 3+1 das-turi (Articulation agreement) doirasida mutaxassis tayyorlash bo'yicha kelishib oldik. Bunda bakalavriat yo'naliishiha 3 yil o'zimizda va 1 yil Kanzas universitetiga borib o'qib kelishni tashkillashtirish masalasi kun tartibiga qo'yilgan.

Shuningdek, Huquq maktabi dekan Stephen Mazza bilan bakalavriat talabalari uchun qisqa o'quv kurslari tashkil etish hamda bitiruvchilar magistraturaga qabul qilish imkoniyatlari mayjudligi yuzasidan ham fikrler almashildi. Universitetimiz o'quv jarayoniga Kanzas universiteti Huquq maktabining professorlarini jaib etish va Huquq maktabiga TDYU professorlarini yuborish yuzasidan ham rejalar ko'rib chiqildi.

Xulosa o'rnda aytish joizki, Kanzas huquq maktabi bilan Toshkent davlat yuridik universiteti o'rtasida o'rnatilgan o'quv, ilmiy va madaniy aloqalar o'zining ijobjiy samarasini bermay qolmaydi. Kanzas universiteti Huquq maktabining ilg'or tajribasini qo'llash dars mashg'ulotlarining sifati oshishiga, ularni rivojlangan mamlakatlar standartlariga moslashtirishga, tayyorlayotgan kadrlarimizning bilim va malakasi oshishiga xizmat qiladi.

**TDYU talabasi Ulug'bek CHORIYEV suhbatlashdi**

Prezidentning 2021-yil 9-avgust-dagi "Yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishida ham davlat siyosatida ijtimoiy himoya ustuvor vazifalardan biri ekanini ko'rish mumkin. Mazkur qaror yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqi va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalarini qamrab oladi.

Qarorning 1-bandida: o'zlariga biriktirilgan turar-joyga ega bo'lmagan va turar-joyga muhtojlar sifatida hisobda turgan yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ular 18 yoshga to'lgan yilda ko'p kvartirali uy-joylardan umumiy maydoni 25 kvadrat metr dan kam bo'Imagan 1 xonali, voyaga yetgan yetim bolalar o'rtasida nikoh tuzilgan hollarda, 50 kvadrat metr dan kam bo'Imagan 2 xonali kvartiralar ajratiladi.

Bunda, mazkur toifaga kiruvchi nogironligi bo'lgan bolalarga kvartiralar ko'p qavatlari uylarning uchinchini qavatigacha ajratilishi;

- yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uchun kvartiralar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan ko'chmas mulkning birlamchi bozoridagi shahar va tumanlarda qurilgan ko'p kvartirali uy-joylardan xarid qilinishi;
- tegishli tuman (shahar)da ko'chmas mulk birlamchi bozorida mazkur bandda nazarda tutilgan mezonlarga mos keladigan kvartiralar mavjud bo'Imanga, hududiy "Xalqparvar" komissiyalari xulosasiga asosan kvartiralar ko'chmas mulkning ikkilamchi bozoridan tegishli mezonlarga muvofiq holda xarid qilinishi;
- yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joylar bilan ta'minlash "onlayn-navbat" tizimi asosida amalga oshiriladi, bunda mazkur navbatga o'zgartirish kiritilishiga hamda navbatidan oldin keyingi navbatdagi bolalarga uy-joy ajratilishiga yo'l qo'yilmasligi ko'rsatilgan.

Shuningdek, qarorning 10-bandida yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ta'limg'olishini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2021-yil 1-sentabrdan boshlab:

- yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'limg'olashni tamomlagan yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ishga joylashtirish va ularning bandligini ta'minlash bo'yicha:
- Oliy va o'rta maxsus ta'limg'olashni shakllantirgan yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ro'yxati asosida ularning yirik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida

- Konstitutsiyaning 77-moddasida davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'limg'olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlashi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantirishi mustahkamlab qo'yilgan.

## E'TIBORGА MUHTОJ BOLALAR



xarajatlari uchun davlat budgeti mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida subsidiyalar ajratilishi;  vazirlik va idoralar Vazirlar Mah-kamasi tomonidan tasdiqlangan grafikka asosan bir yilda kamida bir marotaba barcha "Mehribonlik" uylari, Bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylari, shuningdek "SOS – O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasining bolalar mahallalarida (keyingi o'rinnarda – o'quv-tarbiya muassasalarini) taqdimotlar o'tkazilishi;  o'quv-tarbiya muassasalarini tarbiyalanuvchilarining nodavlat ta'limg'olashni xorijiy tillar, oliy ta'limg'olashni o'qishga kirish uchun imtihon topshiriladigan 2 ta fan, oshpazlik, qandolatchilik, sartaroshlik, kompyuter savodxonligi va o'zlarining qiziqishlaridan kelib chiqqan holda boshqa mos yo'nalishlar bo'yicha kurslarida o'qish xarajatlari davlat budgeti mablag'lari hisobidan bir yilda bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravarigacha miqdorda kompensatsiya qilinishi;  yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni o'qishni davlat oliy ta'limg'olashni tamomlagan yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ishga joylashtirish va ularning bandligini ta'minlash bo'yicha:

- Oliy va o'rta maxsus ta'limg'olashni shakllantirgan yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, ularni farzandlikka, vasiylikka (homiylikka, patronatga) olayotgan va tarbiya qilayotgan oilalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash maqsadida:
- yetim bolalar va ota-onas qa-

har yili amaliyot o'tashi tashkil etilishi;

- texnikum, kollej yoki oliy ta'limg'olashni muassasasiga o'qishga kirmagan hamda kasb egallash istagidagi yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning o'z tizimidagi "Ishga marhamat" monomarkazlari, kasb-hunarga o'qitish markazlari va maskanlarida kasb-hunarga o'qitilishi yo'lga qo'yilishi;
- Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning bandligi bo'yicha doimiy monitoring amalga oshirilishi;
- "Har bir oila – tadbirdor" dasturida belgilangan mablag'lar va tartiblar doirasida yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ularning biznes loyihibarida ko'zda tutilgan maqsadlarga kreditlar navbatga qo'yilmagan holda ajratilishi;
- o'quv-tarbiya muassasalarini Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning turmushini yaxshilash, kasb-hunar va biznes bilan shug'ullanish orqali daromad topish hamda ularga bunday faoliyatni yo'lga qo'yishning amaliy jihatlarini o'rgatishga qaratilgan "kouching" video materiallar, motivatsion roliklar va darsliklar to'plamlari bilan o'quv-tarbiya muassasalarini Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan ta'minlanishi ko'zda tutilgan.

Qarorning 15-bandida esa yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, ularni farzandlikka, vasiylikka (homiylikka, patronatga) olayotgan va tarbiya qilayotgan oilalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash maqsadida:

ramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ota-onalarining yaqin qarindoshlariga bunday toifadagi bolalarni navbatsiz farzandlikka yoki oilaga tarbiyaga (patronatga) olish huquqi berilishi;

- 2021-yil 1-sentabrdan keyin Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarining tashabbusi bilan, yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni vasiylikka va homiylikka olgan "ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan oilalarga ushbu bolalar 18 yoshga to'lganiga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida moddiy yordam puli to'lash amaliyoti joriy etilishi;

2021-yil 1-sentabrdan keyin nogironligi bo'lgan bolalarni vasiylikka (homiylikka, patronatga) olgan oilalarga davlat budgeti mablag'lari hisobidan to'lanadi-gan to'lovlar bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorigacha yetkazilishi;

- Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro'yxat asosida og'ir kasallikka chalangan yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning respublikada yo'lga qo'yilmagan jarrohlik amaliyotlari bo'yicha xorijiy davlatlardagi jarrohlik amaliyotlari bilan bog'liq xarajatlar Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Onkogemato logik va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga chalangan bemorlar ni sog'lomlashtirishga ko'mak-lashish jamg'armasi hisobidan to'liq miqdorda kompensatsiya qilinishi;

"Mehribonlik" uylari va Bolalar shaharchalariga 2 ta psixolog shtat birligi ajratilishi;

- yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar hamda ularni farzandlikka yoki vasiylikka (homiylikka, patronatga) olgan fuqarolarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan bepul yuridik xizmat ko'rsatilishi belgilab qo'yildi.

Mazkur qarorning ijrosi yuzasidan hozirgi kunda Uchtepa tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi tomonidan Uchtepa tuman hokimligi Bolalalarni himoya qilish sho'basi bilan hamkorlikda yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar va ularni homiylikka va vasiylikka olgan shaxslarga ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida bepul huquqiy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

**O'ktam URAZALIYEV,**  
Uchtepa tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

## 4 "MADAD" – MASLAHATCHI



### YOSH CHEGARASI QANCHA?

– Yoshlar "Yoshlar daftari"ga necha yoshdan boshlab kiritiladi? Masalan, yosh oila ham ehtiyojmand bo'lsa, turmush sharoitini yaxshilab olgunicha bu imkoniyatdan foydalanishi mumkinmi?

Omadilla RASULOV,  
Samarqand shahri

– Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-apreldagi "Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan "Yoshlar daftari"ga kiritiluvchi yoshlar uchun yosh chegarasi belgilangan. Qarorga ko'ra, 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar "Yoshlar daftari"ga kiritiladi. Yoshlar nikohi qayd etilganiga 3 yildan oshmagan yosh oila bo'lishsa, mazkur ijtimoiy himoya daftariga kiritiladi.



### ALOHIDA KVOTA BORMI?

– Nogiron farzandim bu yil maktabni tamomlaydi. Oliy o'quv yurtlariqa qabul qilishda nogironlar uchun alohida kvota ajratiladimi?

Oyxon SOBIROVA,  
Samarqand shahri

– "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun oliy ta'llim muassasalarida davlat granti asosida abituriyentlarni qabul qilish umumiyl sonining 2 foizi miqdorida qo'shimcha qabul kvotasi ajratiladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha kvota asosida oliy ta'llim muassasalariga qabul qilish kirish imtihonlari natijalari bo'yicha amalga oshiriladi. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ajratilgan qo'shimcha kvotalar bo'yicha o'qishga qabul qilinmagan abituriyentlar to'plagan ballari bilan ta'llimning ushbu yo'nalishi bo'yicha tanlovda umumiy asoslarda ishtirok etadi. Ko'zi ojizlar toifasiga kiruvchi sifatida hamda nogironligi bo'lgan shaxslarga ajratilgan kvota doirasida davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalar o'qishini oliy ta'llimning mos va turdosh ta'llim yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklariiga davlat granti asosida ko'chirishiga ruxsat etiladi.



### NAFAQA ALOHIDA TO'LANISHI MUMKINMI?

– Uch nafar voyaga yetmagan farzandim bor. Ikki farzandim nogiron. O'zim yolg'iz onaman. Nogiron bolalarni parvarishlash uchun nafaqa tayinlanishini eshitdim. Bu nafaqa har bir bola uchun alohida to'lana dimi?

Go'zal RAIMBERDIYEVA,  
Kattaqo'rg'on tumani

– Parvarishlash nafaqasi o'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolaning parvarishi bilan band bo'lgan qonuniy vakilga qonunchilik hujjatlari belgilangan miqdorlarda tayinlanadi. Bunda, parvarishlash nafaqasi o'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolaga nogironlik belgilangan muddatga tayinlanadi.

Qonuniy vakilga har bir o'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolaning parvarishi uchun alohida parvarishlash nafaqasi tayinlanadi.

Parvarishlash nafaqasi qonunchilik hujjatlari belgilangan kasalliklar ro'yxatiga muvofiq, Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tomonidan berilgan nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolaning o'zgalar parvarishiga muhtojligi to'g'risidagi elektron ma'lumotga asosan tayinlanadi. Parvarishlash nafaqasi qonuniy vakilga (otasi, onasi, vasiysi, homysi, oilaga tarbiyaga oluvchisi (patronat) va farzandlikka oluvchisi) o'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan bola 18 yoshga to'lganiga qadar tayinlanadi.



### ADVOKATLAR QANCHA HAQ OLISHINI O'ZI BELGILAYDIMI?

– Fuqarolik ishi bo'yicha advokatga murojaat qildim. U menha da've arizasi yozib berishi uchun alohida, sudda vakil sifatida qatnashishi uchun alohida haq olishini aytdi. Advokatning shu ishi qonuniymi?

Nihola AMRIDDINOVA,  
Samarqand shahri

– O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuna ka'ra, Ishaqch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) tomonidan advokatga to'lanadigan haq va advokatning topshiriqni bajarish bilan bog'liq xarajatlarini kompensatsiya qilish yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitimda (shartnomada) nazarda tiligantartibda hamda muddatlarda tegishli advokatlik tuzilmasining kas-

sasiga kirish qilinishi yoki advokatlik tuzilmasining bankdagi hisobvarag'iga o'tkazilishi shart. Ya'ni, advokat xizmatiga haq to'lashning aniq miqdori qonunda belgilanmagan. Da'vening murakkabligi va boshqa holatlarni hisobga olib advokatlik tuzilmasi haqni o'zi mustaqil belgilaydi.

### REEKSPORT REJIM NIMA?

– Reeksport bojxona rejimi haqida ma'lumot bersangiz?

Muslimjon YUSUPOV,  
Jomboy tumani

– Bojxona kodeksining 32-moddasida reeksport bojxona rejimi to'g'risidagi norma keltirilgan. Unga binoan, reeksport rejimi shunday rejimki, bunda bojxona hududiga ilgari olib kirilgan tovar yoxud bojxona hududida qayta ishslash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovari qayta ishslash mahsulotli bojxona hududidan bojxona bojlari va soliqlar to'lanmagan, tovarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralar qo'llanilmagan holda, uni olib kirishda to'langan bojxona bojlari va soliqlar summalar qaytarilgan holda olib chiqiladi.



### SHAROIT YARATGANGA HAM JAZO BOR...

– Tungi vaqtda kompyuter o'ynash xonalarida voyaga yetmagan bolalarga o'yin o'ynashiga sharoit yaratganlik uchun qanday javobgarlik bor?

Oynisa ZARIPOVA,  
Bulung'ur tumani

– Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 188<sup>2</sup>-moddasiga asosan, voyaga yetmagan shaxsning ko'ngil ochish (dam olish) joylarida tungi vaqtda bo'lishiga yo'l qo'yish uchun javobgarlik belgilangan. Mazkur moddaga asosan restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, Internet tarmog'idan foydalanan xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalar yoki boshqa ko'ngil ochish (dam olish) joylarining rahbarlari yoxud boshqa mas'ul shaxslari tomonidan voyaga yetmagan shaxsning tungi vaqtda ota-onasidan biri yoki uning o'rnnini bosuvchi shaxsning kuzatuvisiz ko'rsatilgan muassalarda bo'lishiga yo'l qo'yish – bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.



### MALAKA TOIFASI KIMLARGA BERILADI?

– O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilar ham malaka toifasi olishi mumkinmi?

Sarvar BAXTIYOROV,  
Samarqand tumani

– Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'llim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, olyi ma'lumotli pedagoglar tegishli attestatsiyadan o'tganlardan so'ng, ularga malaka toifalari beriladi. O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilar imtiyozli kvotalar asosida oliy o'quv yurtlariga qabul qilinib, oliy ma'lumotli bo'lganlardan so'ng, qonunda nazarda tutilgan tartibda malaka toifalari olishlari mumkin.



### JAVOBGARLIK BELGILANGANMI?

– Elektr tarmoqlariga noqonuniali sholatlari ham uchrab turadi. Buning uchun jinoiy javobgarlik belgilanganmi?

Muhammad HAYDAROV,  
Jizzax viloyati

– Buning uchun ma'muriy va jinoiy jazolar belgilangan, albatta.

Jinoyat kodeksiga asosan umumiy foydalishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga tijorat maqsadlarida o'zboshimchalik bilan ulanish yoxud elektr energiyasini, tabiiy gazni, sovuq yoki issiq svuni hisobga olish asboblariga, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoxud hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish yo'li bilan talon-toroj qilish o'g'rilik deb baholanadi hamda mazkur huquqzurlik uchun 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanishi mumkin.

### SUDLANGANLIK QACHON OLIB TASHLANISHI MUMKIN?

– Sudlanganlik holati qachon tugallanadi?

Sanjar MURODOV,  
Paxtachi tumani

– Jinoyat kodeksining 78-moddasiga asosan jarima jazosi ijro etilgan kundan keyin, shuningdek muayyan huquqdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazolari o'talgandan keyin 1 yil o'tgach shaxsnинг sudlanganlik holati tugallanadi. Sudlanganlik afv etish yoki amnostiya akti asosida ham olib tashlanishi mumkin.

Savollarga "Madad" NNT Samarqand shahar huquqiy maslahat byurosiga bosh mutaxassisini Malika TOLLIBAYEVA javob berdi

## Nasibanining fuqaroligi tasdiqlandi



Mingbuloq tuman adliya bo'limi tomonidan "Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi" aksiyasi doirasida xatlov o'tkazilganda "Nayman" mahallasida yashovchi Nasiba Shokirjonova O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishda amaliy yordam so'radi.

Ayni murojaat o'rganib chiqilganda ayon bo'ldiki, N. Shokirjonova 1992-yilda Chust tumanida tug'ilgan. Bu xususda tuman FHDY bo'limi tomonidan 429-sonli dalolatnoma yozuvi rasmiylashtirilgan. So'ngra u tumandagi 32-umumta'lum maktabi hamda kasb-hunar kollejida o'qigan. 2017-yilda esa Mingbuloq tumanida istiqomat qiluvchi A. Mamasoliyevga turushga chiqqan. Ammo shaxsnii tasdiqlovchi hujjati bo'lmaganligi sababli er-xotinning nikohi qonuniy rasmiylashtirilmagan. Ya'ni, onasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, otasi Tojikiston Respublikasi fuqarosi bo'lgani bois Nasiba O'zbekiston fuqaroligini ololmagan. Faqtgina 2019-yilda unga yashash guvohnomasi berilgan, xolos. Oqibatda ayni paytga kelib, hujjatlar bilan bog'liq ba'zi muammolarga duch kelgan.

Tuman adliya bo'limi tomonidan N. Shokirjonovaning manfaatini ko'zlab, fuqarolik ishlari bo'yicha Namangan tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sud Nasiba Shokirjonovaning 1992-yildan to shu paytga qadar O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganlik faktini belgilash yuzasidan hal qiluv qarori qabul qildi.

**Halimjon QOBILOV,**  
Mingbuloq tuman adliya bo'limi boshlig'i

## TADBIRKORNING SOLIQ QARZDORLIGI BEKOR QILINDI

Urgutlik tadbirkor A.X. aslida yer va mol-mulk solig'i uchun qariyb 10 million so'm soliq to'lashi kerak bo'lsa-da, tuman soliq inspeksiysi tomonidan unga nisbatan 90 million so'mdan ziyod qarzdorlik belgilangan. Bundan norozi bo'lgan tadbirkor Samarqand viloyat adliya boshqarmasiga murojaat qildi.

O'rganishda aniqlanishicha, unga nisbatan jami 90 million 630 ming 237 so'm miqdoridagi soliq qarzdorligi noto'g'ri hisoblangan. Joriy yilning 4-martida viloyat davlat soliq boshqarmasiga kiritilgan "Qonun hujjatlarining buzilishi, ularning sabablari va bunga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida"gi taqdimnomaga asosan noto'g'ri hisoblangan mazkur qarzdorlik bekor qilindi.

Shuningdek, qonunbuzilishi holatlariha hamda ish faoliyatida xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimga nisbatan o'rtaча oylik ish haqining yigirma foizi miqdorida jarima intizomiy jazo chorasi qo'llanildi.

**Islom UMAROV,**  
Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligiga Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi xodimlari murojaat qilib, ko'p yillik mehnat stoji uchun ustama puli to'lanmay kelganini bildirib, ushbu masalada amaliy yordam so'rangan.

## 780 million so'mdan ortiq ustama pullari undirildi



Aniqlanishicha, 100 nafardan ortiq fuqarolarning ko'p yillik mehnat stoji uchun ustama pullari to'lanmay kelgingan.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-yanvar-dagi qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 7-bandiga muvofiq, budjet tashkilotlari xodimlariga mehnat to'g'risidagi qonunlarga muvofiq ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida uzoq muddat ishlanganlik uchun lavozim maoshiga foiz miqdorida har chorakda quyidagi miqdorlarda ustamalar to'lanishi belgilangan:

- 3 yildan 5 yilgacha 30 foiz;
- 5 yildan 10 yilgacha 40 foiz;
- 10 yildan 15 yilgacha 60 foiz;
- 15 yildan ortiq ish stajiga 80 foiz miqdorida lavozim maoshiga ustamalar to'lanishi lozim.

Murojaat o'rganilib, fuqarolik ishlari bo'yicha Nukus tumanlararo sudiga 127 nafar fuqaroning manfaatini ko'zlab, umumi miqdori 780 million so'mdan ortiq bo'lgan ustama pullarini undirib berish bo'yicha da'vo arizasi kiritilib, fuqarolarning murojaatlari to'liq qanoatlantririldi.

**Asilbek MOLDAXMETOV,**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi mas'ul xodimi

SO'RAGAN EDINGIZ



**ISH BERUVCHI  
ISHDAN BO'SHATISH  
NAFAQASINI  
TO'LASHGA MAJBURMI?**

Mehnat kodeksining 173-moddasiga asosan quyidagi asoslar bilan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda, ish beruvchi unga ishdan bo'shatish nafaqasini to'lashga majbur:

- mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilinganda; (Bundan shartnomma xodimning aybli harakatlari (harakatsizligi) bilan bog'liq asoslar bo'yicha bekor qilingani mustasno).
- xodimning harbiy yoki muqobil xizmatga chaqirilgani munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda;
- shu ishni ilgari bajarib kelgan xodimning avvalgi ishga tiklangani munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda;
- tashkilotni tugatish yoki ish beruvchi bo'lgan yaka tartibdagi tadbirkor faoliyatini tugatish to'g'risidagi sud qarorining qonuniy kuchga kirganligi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda;
- ishga qabul qilishga doir belgilangan qoidalarning buzilgani, agar yo'l qo'yilgan qoidabuzarlikni bar-taraf etish imkon bo'limasa va u ishni davom ettirishga to'sqinlik qilgani munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda;
- qonunchilikka muvofiq mehnatga oid munosabatlarni davom ettirishga monelik qiladigan hollatlar yuzaga kelgani munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda;
- xodim yangi mehnat shartlarida ishni davom ettirishni rad etganligi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda;
- xodim tibbiy xulosaga muvofiq sog'lig'inining hollatiga ko'ra o'ziga qarshi ko'rsatma bo'lmagan boshqa ishga o'tkazishni rad etganligi yoxud ish beruvchida tegishli ish bo'lmagan munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda;
- xodim ish beruvchi bilan birga boshqa joydagisi ishga ko'chishni rad etganligi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda.



**NAFAQA MIQDORI  
QANCH?**

Ishdan bo'shatish nafaqasining miqdori mazkur ish beruvchidagi ish stajiga bog'liq. Masalan:

- uch yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan;
- uch yildan besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining yet mish besh foizidan;
- besh yildan o'n yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining yuz foizidan;
- o'n yildan o'n besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining bir yuz ellik foizidan;
- o'n besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining ikki yuz foizidan kam bo'lishi mumkin emas.

**Nargiza NURNAZAROVA,**  
Samarqand shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

## 6 BILASIZMI?

BILASIZMI?

**?** -Menda surunkali kasallik bor. Shifokorlar tashxisidan keyin uyimni singlimming nomiga o'tkazib berish fikriga keldim. Bir tanishim hadya shartnomasi tuzing, ishingiz oson bo'ladi, dedi. Hadya shartnomasi nima? Shu haqda ma'lumot bersangiz?

Malika ISKANDAROVA

## HADYA SHARTNOMASI NIMA?



- Hadya shartnomasi yuridik hujjat hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 31-bobi "Hadya" deb nomlangan bo'lib, kodeksning 502-511-moddalarida aynan hadya shartnomasining shakli, uni tuzish, bekor qilish, hadya bo'yicha huquqiy vorislik, xayr-ehson turidagi hadya haqida batafsil ma'lumot berilgan. Hadya shartnomasiga ko'ra bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga ashyoni tekin mulk qilib beradi yoki berish majburiyatini oladi yoxud unga o'ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabini) beradi yo berish majburiyatini oladi yoxud uni o'zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoinki ozod qilish majburiyatini oladi.

Hadya shartnomasi ba'zi huquqiy belgilari bilan boshqa shartnomalardan farqlanadi, albatta. Buni ularning haqiqiy sanalmasligi hollarida ham ko'rish mumkin. Bitimlarning haqiqiy sanalishi uchun odatda qo'yiladigan shartlardan tashqari, hadya, birinchidan, ashyo, mulk huquqi yoki mulkiy majburiyatdan ozod qilish shaklidagi hadya ashvosini aniq ko'rsatish kerak. Ikkinchidan, hadya predmeti hadya oluvchiga hadya qiluvchining tirikligida topshirilishi kerak. Bundan tashqari, hadya shartnomalari, albatta, oddiy yozma shaklda tuzilishi, ko'chmas mulklarni hadya qilish esa, ayni paytda notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi ham kerak.

Har bir shaxs o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkni, umillardan iboratligidan va qayerda joylashganligidan qat'i nazar, o'zi xohlagan shaxsga hadya qilib berishi yoki vasiyatnama qilib qoldirishi mumkin. Hadya shartnomasiga muvofiq bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga ashyoni tekinga mulk qilib beradi. Ko'chmas mulknini hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Fuqarolik qonunchiligidagi hadyani hadya oluvchiga hadya qiluvchining vafotidan keyin topshirilishini nazarda tutuvchi shartnomasi tan olinmaydi. Bunday holatda hadyaga nisbatan vasiyatnama to'g'risidagi qoidalar qo'llanadi. Hadyaning vasiyatnomadan farqi shundaki, mulk hadya qiluvchining tirikligida topshiriladi. Vasiyatnama esa, insonnning hayotligida uning mulkiy huquqlarida aks etmaydi. Vasiyatnama bekor qilinishi, o'zgartirilishi mumkin, hadya esa qoida tariqasida orqaga qaytmaydi. Hadyani shartnomasi deyish mumkin, vasiyatnama esa, odatda, bir tomonlama bitimdir.

Hadya oluvchi hadya qilinadigan narsaning qandayligiga qarab davlat Soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadigan soliqni to'laydi. Hovli-joy hadya qilinayotgan bo'lsa, yer va mulk solig'i, ko'p qavatlari uy xonadoni hadya qilinayotgan bo'lsa, mulk solig'i to'lanadi. Boshqa narsalarga mulkning 1 foizi miqdorida soliq solinadi. Yaqin qarindoshlar orasida hadya shartnomasi imzolansa, soliq imtiyozlari mavjud. Buning uchun yaqin qarindoshi ekanligini tasdiqlovchi hujjat, ma'lumotnomasi talab etiladi.

**Savolga Kattaqo'rg'on shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ayyub QURBANOV javob berdi**

**?** Inson tug'ilib, to umrining oxiriga qadar bo'lgan vaqt mobaynida bir necha marotaba FHDY bo'limiga murojaat qiladi. Hayotiy muhim holatlar aynan FHDY bo'limida qayd qilinadi.

## TEZKOR VA SIFATLI XIZMAT

Avvallari tug'ilish, nikoh, nikohdan ajralish va boshqa xizmatlardan foydalanish uchun FHDY bo'limiga kelgan fuqarolardan birinchi navbatda doimiy ro'yxatdan o'tgan manzili so'ralar edi. Agar boshqa tumanda istiqomat qilayotgan fuqarolar o'zlariga yaqin bo'lgan hududda joylashgan FHDY bo'limiga borib barcha xizmatlardan emin-erkin foydalanishlari mumkin.

Zamon shiddat bilan rivojanishi barcha sohalari qatori aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini ham yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda yurtimizda istiqomat qilayotgan fuqarolar o'zlariga yaqin bo'lgan hududda joylashgan FHDY bo'limiga borib barcha xizmatlardan emin-erkin foydalanishlari mumkin. Yana bir muhim jihat, avval qo'lyozma shaklida taqdim etilgan tug'ilganlik, nikoh tuzilganligi, nikohdan ajralganlik va o'lim haqidagi gerbli guvohnomalar bugunga kelib elektron ravishda to'ldirilib, barcha turdag'i dalolatnomasi yozuvlari FHDY yagona elektron arxivni axborot tizimiga kiritilib borilmoqda.

Bu esa o'z navbatida, yillar o'tib biror bir hujjatga ehtiyoj sezgan fuqarolarning ortiqcha vaqt sarf



etishining oldini oladi. Bundan tashqari, to'lovlar billing invoysi orqali to'lanishi sababli uzoqda joylashgan bankka borish uchun vaqt sarflanmaydi.

Elektron tizim yo'lga qo'yilgani sababli tibbiyot muassasalar bilan onlaysin aloqa o'rnatilgan bo'lib, tug'uruqxonada bola tug'ilishi bilan elektron ravishda FHDY bo'limiga ona va bola haqidagi ma'lumotlar qisqa vaqt ichida yetib keladi. Fuqarolarni quvontiradigan yana bir yangilik – endilikda farzandi tug'ilganda beriladigan bir martalik suyunchi puli ota-onalarning bank plastik kartasi FHDY bo'limining o'zida tushirib berilmoqda. Bu kabi yaratilayotgan qulayliklar esa fuqarolarning vaqtini tejashga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda barcha sohalari qatori FHDY bo'limlarida ham fuqarolarning vaqtini tejash, ularga zarur sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday imkoniyat va qulayliklar FHDY bo'limi xizmatidan foydalanuvchi aholining ishi tez va sifatli bitishida ayni muddao bo'limoqda.

**Maxfuza MAXKAMOVA,**  
Shayxontohur tuman adliya bo'limi  
2-son FHDY bo'limi mudiri

## UYDA TUG'ILGAN BOLAGA GUVOHNOMA QAY TARTIBDA OLINADI?

**- Farzandim 2012-yil oilaviy sabablarga ko'ra uyda tug'ilgan. Ayni paytgacha bolamning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi yo'qligi bois bog'cha va mакtabga bera olmaganman. Ya-qinda televizor orqali FHDY xodimlari "Huquqiyaksiya" doirasida uyda tug'ilgan bolalarga guvohnomalar berishayotganini ko'rib qoldim. Menga shu haqida ma'lumot bersangiz.**

**Zarifa ULUG'XO'JAYEVA,  
Toshkent shahri**



– "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ning 3-moddasiga asosan, davlat yoki xususiy tashkilotlar, ijtimoiy himoya organlari, sud, ma'muriy organlar hamda qonun chiqaruvchi organlar tomonidan bolaga nisbatan amalga oshiriladigan barcha harakatlarda bolaning manfaatlari birinchi o'rinda turishi belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktobrdagi "Nikoh, oila va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish sohasidagi normativ-huquqiy hujjalarni tizimlashtirish to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari"ning 20-bandiga muvofiq, tug'ilganlikni qayd etish uchun bola tug'ilgani to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnomasi (tug'ilganlikni kompleksi davlat xizmati sifatida qayd etish bundan mustasno), ota-onalarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari, (fuqarolik pasporti, xorija chiqish pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, harbiy xizmatchining harbiy bilet), nikoh tuzilgani

to'g'risidagi gerbli guvohnoma yoki otalikni belgilash haqidagi ariza yoxud nikohda bo'lmagan onanig arizasi taqdim etiladi.

Tug'uruqxonalardan tashqari joylarda va tibbiy yordamsiz dunyoga kelgan bolaning tug'ilganligi qayd etish uchastka shifokori (feldsher yoki akusher) tomonidan berilgan ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi. Bunday hollarda bolaning ushbu onadan tug'ilganligiga guvoh bo'lganlar ishtirokida tuzilgan va uchastka shifokori (feldsher yoki akusher) tasdiqlagan dalolatnomasi tibbiy ma'lumotnomasi berish uchun asos hisoblanadi.

Agarda farzandingiz uy sharoitida tug'ilgan bo'lsa, Siz bola tug'ilgan hududdagi uchastka shifokoriga murojaat qilishingiz hamda bolaning tug'ilganligiga guvoh bo'lganlar ishtirokida (doya (akusher), qo'shnilar, mahalla faollari va h/k) dalolatnomasi tasdiqlatishingiz va ushbu dalolatnomasi orqali hududingizda joylashgan tug'uruq kompleksiga murojaat qilishingiz lozim.

Tug'uruq kompleksi tomonidan tegishli tartibda bolaga nisbatan rasmiylashtirilgan ma'lumotnomasi FHDY bo'limida tug'ilishni qayd etish uchun asos bo'ladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishning ahamiyati shundaki, unga asosan FHDY organi tomonidan berilgan guvohnoma va unda ko'rsatilgan faktning to'g'riligini tasdiqlovchi shaksiz dalil hisoblanadi. Shunga binoan, FDHY bo'limi tug'uruq kompleksi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotnomaga qo'shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa hujjatlarni ham talab qilishi mumkin.

Bugungi kunda Adliya vazirligi tashabbusi bilan "Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi" shiori ostidagi huquqiy aksiya doirasida uyma-uy yurilganda tegishli hujjatlari mavjud bo'lmagan fuqarolar aniqlanib, ularning muammolari qonuniy hal etilmoqda.

**Feruzabonu RAHIMOVA,**  
Bektemir tuman adliya bo'limi  
FHDY bo'limi mudiri

# Elda aziz bo'lgan Ra'no opa

Ra'no Saidova Sho'rchi tumanida tug'ilgan. Bolaligi ikkinchi jahon urushi yillariga to'g'ri kelgan, o'smirligi esa urushdan keyingi og'ir va murakkab yillarda o'tgan. Orzu-armonlari bir olam qizning yoshligi ota-onasiga yordam berish, ularning ishonchini oqlash, jamiyatga foyda keltirishdan iborat bo'ldi.

Mehnat faoliyatini 1968-yilda o'zi tug'ilib o'sgan tumanda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limida ish yurituvchilikdan boshladi. Xalqimizning "Daraxt bir joyda ko'karadi" degan ajoyib maqoli xuddi ana shu ayolga aytigandek. Ra'no opa keyinchalik o'zi 4 yil ish yurituvchilik qilgan FHDY bo'limida salkam 30 yil mudirlik lavozimida mehnat qildi. Hamyurtlarining quvонch va tashvishlariga sherik bo'ldi, fuqarolarning huquqiy bilimi va madaniyatini oshirishga o'z hissasini qo'shdi.

Minglab oila qurban yosh yigit-qizlar uning qo'lidan baxt guvohnomasini, baxtiyor oilalar esa yangi tug'ilgan farzandlariga tug'ilganlik guvohnomalarini oorganini haligacha minnatdor eslaydi.

Sho'rchiliklar o'rtasida o'ziga yarasha hurmat-e'tibor topgan, hayotning murakkab sinovlarini yengib yashayotgan qahramonimizni tabarruk 80 yosh bilan muborakbod etamiz, hamisha elda aziz bo'ling, umringiz uzoq bo'lsin, munis onaxon!



## Hurmatga sazovor ayol

Svetlana Melikovna Samarkand shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. Mehnat faoliyatini Samarkand shahar 2-militsiya bo'limining katta pasportchisi lavozimidan boshlagan.

1983-yilda Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini tamomlagan. Mehnat faoliyatini taqdir taqazosi bilan 1980-yilda Namangan viloyat prokuraturasining inspektori lavozimida davom ettirdi. Shundan so'ng, katta inspektor, umumiy nazorat bo'yicha prokurori, prokurorning statistika va hisobot bo'yicha katta yordamchisi, prokurorning kadrlar bo'yicha katta yordamchisi, prokurorning fuqarolik ishlarini sudda ko'rish ustidan nazorat qilish bo'yicha yordamchisi vazifalarida salkam yigirma yil xizmat qildi.

Bir muddat Uchqo'rg'on tuman prokuraturasining tergovchisi lavozimida ishladi. Keyingi o'n to'rt yil davomida Namangan shahar 2-sonli davlat notarial idorasining notariusi hamda katta notariusi vazifalarida xalqqa xizmat qildi.

Svetlana Irmatova 3-darajali adliya maslahatchisi, tajribali yurist, mehribon va oqila oila bekasi, davlat va jamiyatda o'zining munosib o'rnni topgan, Samarqand Namanganda yuksak qadr topgan, hamkasblar ko'nglidan joy olgan, shogirdlar hurnatiga sazovor bo'lgan ayol. Muborak yoshingiz bilan qutlaymiz Svetlana Melikovna! Umringizga umr qo'shilsin.

**Marusa HOSILOVA,**  
"Inson va qonun" muxbirini



### SUD ZALIDAN

## Hamxonang o'g'ri bo'lsa, dodingni kimga aytasan?

Yaqinda sudda 18 yoshli yigitning ishi ko'rib chiqildi. E.S. o'g'rilik jinoyatini sodir etganlikda ayblandi.

– O'tgan yilning sentabr oyida Farg'onadan Toshkentga ishlash uchun kelgandim, – dedi sud majlisida sudlanuvchi E.S. bo'lib o'tgan voqealarni birma-bir eslar ekan. – Shota Rustaveli ko'chasidagi xonadonda ikki shergim bilan ijara yashadik. Shu orada men kafega ofitsiant bo'lib ishga kirdim. O'sha kunlari menga pul juda kerak edi. 2-noyabr kuni tushlikka yaqin ijara uyimizga kelsam, uyda hech kim yo'q ekan. Nima jin urdi-yu, xayolimga birga yashayotgan B.T. ismli shergimning noutbugini o'g'irlab, sotish fikri keldi. Noutbukni o'g'irlab, udyan chiqdim. Uni arzon-garovga bo'lsa ham, tezroq sotishni, undan qutilib, pulga ega bo'lismagining o'ylardim. Noutbukni "Chilonzor" metrosining oldida, bir notanish yigitga pul juda zaruri uchun sotayotganimni aytib, "akamniki" deb, 200 ming so'mga sotdim. O'sha kuni ikkinchi shergimning uxlab yotganidan foydalaniib, yostig'inining tagidagi telefonini sezdirmasdan o'g'irladim. Ertasi kuni yana "Chilonzor" metrosi tomonaga borib, telefonni ham sotdim. Unga bir notanish yigit xaridor bo'ldi. Xullas, telefonni 750 ming so'mga pulladim. O'g'riliqni birov sezmagandan, ish oson ko'chganidan xavotirlarim yo'qoldi. Lekin ijara uyga kelib, tinchim buzildi. Sheriklarim noutbuk bilan telefon yo'qolganligi haqida ichki ishlar organlariga xabar berishibdi. Topisholmaydi, menden gumin



qilishmaydi, deb o'yladim. Shu xotirjamlikda 5-noyabr kuni Farg'onaga ketdim. Oradan bir-ikki kun o'tib, meni Yakkasaroy tumani ichki ishlar bo'limidan telefon qilib chaqirishdi. Toshkenga qaytib kelib, IIBo'borib, aybimni tan oldim. Hozir qilgan ishimdan pushaymonman. Jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qopladi. Yengillik bering...

Tergovdagagi tezkor harakatlar sabab ushbu jinoiy ish ochildi, hamxonasining o'g'riliqini bilgan sherkilar keltirilgan zarar to'liq qoplangach, uni kechirishdi ham. Lekin har bir jinoyatga jazo muqarrar, jinoyatchi qonun oldida javob beradi, albatta.


Sud sudlanuvchiga jazo tayinlashda uning yoshligini, aybiga iqrorligi va boshqa jihatlarni e'tiborga oldi. Sud hukmi bilan E.S.ga ikki yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi.

U o'ylamay qilgan ishi, qiyin vaziyatda sabrsizligi bilan jinoyat ko'chasiga kirib qoldi. Aybdor sifatida qonun oldida javob berdi ham. Lekin uning so'nggi pushaymoni o'ziga dashman bo'ldi. E.S.ni tangan-bilganlar uni "o'g'ri" deb atashsa, endi qanday bosh ko'tarib yuradi? Eng yomon jazo shu emasmi aslida?!

**Azimjon HAKIMOV,**  
jinoyat ishlari bo'yicha  
Yakkasaroy tuman sudi sudyasi

### TALQIN

E'tirof etish kerak, ayni paytda yurtimiz yoshlarining chet tillarini o'rganishga bo'lgan ishtyoqi juda yuqori. Ayniqsa, bugun aksariyat o'g'il-qizlar "CEFR", "TOEFL", "IELTS" kabi xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritish orqali rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim olishni maqsad qilgan.



## PEDAGOGLARGA QO'SHIMCHA DAROMAD

Prezidentimizning 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan esa eng tilini bilish darajasi bo'yicha yurtimizda tan olinadigan "CEFR" sertifikati joriy etilgan.

Bugungi kunda IELTS (International English Language Testing System) 140 dan ortiq mamalakatda tan olinadigan eng ishonchli ingliz tili testidir. Unga tayyorgarlik ko'rish va imtihondan muvaffaqiyatli o'tish uchun internet tarmog'iда minglab o'quv qo'llanmalari, bepul darslar hamda turli xizmatlar mavjud. British Council va IDP (International development program) markazi esa O'zbekistonda ushbu testlarni o'tkazish bo'yicha mas'ul tashkilotlar hisoblanadi.

TOEFL (Test of English as a Foreign Language) ingliz tilida so'zlashmaydigan davlatlar uchun xalqaro imtihondir. AQShning Pariston universitetiga qarashli Educational Testing Service (ETS) tashkiloti tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi Prezident farmoniga ko'ra, 2025-yil 1-yanvargacha DTM (hozirgi Bilim va malakalarni baholash markazi)ning milliy baholash tizimi bo'yicha chet tilidan sertifikatga ega pedagoglarning ish haqiga 50 foiz, 2025-yil 1-yanvardan 20 foiz miqdorida ustama beriladi. Ustama sertifikatning amal qilish muddati davomida to'lab boriladi.

Bundan tashqari, endi chet tilidan milliy sertifikatga ega o'qituvchilarning maoshiga 50 foiz qo'shimcha ustama to'lanadi. Shuningdek, umumta'lim fanlaridan bir nechta sertifikatga ega o'qituvchilar yuqoriqo ustama olish huquqini beruvchi sertifikat bo'yicha to'lanadi.

Hamkasblarimizga ayonki, 2022-yil 1-sentabrdan buyon xalqaro tan olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga – ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida, xalqaro standartlar talablariga javob beradigan milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida, Davlat test markazining milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga esa ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida (chet tili bo'yicha sertifikatlar bundan mustasno) ustama to'lanmoqda.

**Gulnoz QULBOYEVA,**  
Termiz tumanidagi 1-umumta'lim maktabining  
oliy toifali ingliz tili o'qituvchisi

Toshkent shahar adliya boshqarmasi ja-

moasi faxriy huquqshunos

**Muhayyo ALIYEVAning**

vafot etgani munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqr ta'ziya bildiradi.

## 8 XALQARO ANJUMAN



Din mavzusi juda nozik va juda ehtiyyotkorlikni talab qiladigan mavzu.

Cherkovga kirgani uchun "Sen endi musulmonchilikdan chiqding", deb o'zbek yigitini haqorat qilish, undan yuz o'girish, yoki davlat xizmatchisi bo'lgan yuqori lavozimdagagi amaldorning "Maktab ta'limi dasturiga diniy ta'limni kiritish kerak", deyishi qanchalik to'g'ri? Yoki Ikkinchiji jahon urushi davrida yurtimizga kelib qolgan boshqa millat vakillari qabristonlarini buzib, o'rniqa turli bino-inshootlar qurilishi insofdanmi? Televideniyega intervyyu bergan muslima ayolning turmush o'rtog'idan malomatga qolishini qanday baholash mumkin? Bog'cha yoshidagi qizaloqlarning hijobga o'ralishi jamiyatda qanday aks-sado berayotir? Shunga o'xshash yoki shu kabi savollar "Markaziy Osiyoda dinlararo va bir din ichidagi bag'rikenglik masalalarini yoritishda ommaviy axborot vositalarining o'rni" mavzusida bo'lib o'tgan xalqaro davra suhbatida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi.

# QONUNLARDA E'TIQOD ERKINLIGI BOR, AMALDA-CHI?!

Markaziy Osiyo mamlakatlari – Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondan manfaatdor davlat organlari vakillari, jurnalistlar, blogerlar va ekspertlar, fuqarolik jamiyatni institutlari vakillari ishtirok etgan tadbir tashkilotchilar – O'zbekiston Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi va "Search for Common Ground" xalqaro nodavlat notijorat tashkilotining O'zbekiston Respublikasidagi filialining asosiy maqsadi dunyoviy davlatda din erkinligi va dinlar xilma-xilligi bilan bog'liq dinlararo muloqotni mustahkamlashda davlat organlari, fuqarolik jamiyatni va ommaviy axborot vositalarining roli haqida batapsil mulohaza yuritishdan iborat.

Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi direktori, filologiya fanlari nomzodi Gulnora Bobojonova moderatorlik qilgan tadbirda dastlab



USAIDning O'zbekistondagi missiyasi Demokratiya va boshqaruvin bo'yicha idorasini direktori Fey Xaselkorn, Milliy Mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish Jamoat fondi direktori Akromjon Foziljonov, "Search for Common Ground" xalqaro nodavlat notijorat tashkilotining O'zbekistondagi filiali rahbari Keneshbek Saynazarovning fikrlari mavzuning mohiyati naqadar muhimligini o'zida aks ettirdi.

Mediatrener, moderator va ekspertlarning xulosasi aniq va tiniq: Davlat diniy bag'rikenglikni qonunlar bilan ta'minlab berishi zarur. Mediating oldidagi asosiy vazifa esa, eng avvalo, ommaga qonun ustuvorligini va qonunda insonlarga e'tiqod erkinligi borligini tushuntirishdan iborat. Bir mamlakatda turli din vakillari bir-birini hurmat qilib, bir maqsad yo'lida, baxtili va farovon yashashi mumkinligi diniy bag'rikenglikning eng yorqin ifodasi ekanini keng targ'ib qilish ham muhim, albatta.

Gapni Bosh qonunimizdan boshlaydigan bo'lsak, Konstitutsiyamizning 1-moddasida O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren,

demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb belgilab qo'yilgani bu masalada muammo qoldirmaydi.

4-moddada O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekani, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarining tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishi muhurlangan. 19-moddada esa O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'лади.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. 27-moddaga muvofiq har kim erkinlik va shaxsiy daxsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Shaxsni ushslash chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart.

35-moddada esa "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmashlik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi." degan bag'rikenglik o'z ifodasini topgan. 71-moddaga ko'ra, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, O'zbekistonning davlat suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy advovatni targ'ib qiluvchi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, aholining sog'lig'iga, ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi siyosiy partiyalarning, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarning, shuningdek, milliy va diniy belgilari ko'ra, siyosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlandi. Maxfiy jamiyatlar va birlashmalar tashkil etish taqiqlandi.

Ko'rinib turibdiki, davlatimiz tomonidan diniy bag'rikenglik qonunlar bilan kafolatlab qo'yilgan.

Xususan, mamlakatimizning barcha hududlarida milliy madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. Ularning o'z tili, o'z urf-odatlari erkin targ'ib etishiga keng imkoniyatlar yaratilgan. Oddiy argumentlarga murojaat qiladigan bo'lsak, shubhasiz, yaxshi natijalar qo'liga kiritilganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, O'zbekistonda 100 dan ortiq millat va elat vakillarining ahil, inoq, bir oiladek bo'lib yashashi, bir-birining quvonch va tashvishlariga sherik bo'lishi, og'ir kunlarda bir-birini qo'llab-quvvatlashi e'tirofga sazovor.

Yoki Konimex tumanida 100 nafar o'quvchisi bo'lsa-da, qoraqalpoq tilida ta'lim beradigan butun boshli alohida maktab qurib berilgani, O'zbekiston Qahramoni unvoni birinchi bo'lib Qizilqumda mehnat qilayotgan ukrain va qozoq millati vakillariga berilgani, albatta, diniy bag'rikenglikning bir ifodasidir.

Biroq yutuqlar bilan bir qatorda bu borada dunyo va din o'rtasida yechimini kutayotgan muammolar ham bor.

Tadbir davomida Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston Respublikalaridan ishtirok etgan ekspertlarning e'tiqod va din, dinlararo bag'rikenglik masalalaridagi fikr-mulohazalari, mavzuni yoritishda jurnalistlarga ayrim e'tiroflari ham tinglandi.

Oddiy xulosa shu: din va dunyo. E'tiqod erkinligi. Dinlararo va bir din ichidagi bag'rikenglik eng avvalo har bir millatning dini va e'tiqodini hurmat qilishni taqozo qiladi. Bu esa tinchlik va taraqqiyotning asosiy mezonidir!

**Marusa HOSIOVA,**  
"Inson va qonun" muxbirini